

「崇拜」，「礼拝」，「祈り」TERMINLARINING EKVIVALENT
TARJIMALARI

Madumarova Dilnora Baxodir qizi

O‘zDJTU, Sharq filologiyasi fakulteti,

Yapon filologiyasi kafedrasida o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Til va tarjima jarayonida diniy terminlarni to‘g‘ri ifodalash alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa, islomiy tushunchalarni boshqa tillarga tarjima qilishda semantik nozikliklar va madaniy farqlar hisobga olinishi zarur. Yapon tilidagi 崇拜, 礼拝 va 祈り terminlari o‘zbek tiliga tarjima qilinayotganda ularning semantik va diniy xususiyatlarini chuqur anglash muhimdir. To‘g‘ri tanlangan ekvivalent tarjimalar diniy matnlarning mazmunini aniq yetkazishga xizmat qiladi va noto‘g‘ri talqinlarning oldini oladi. Ushbu maqolada yapon tilidagi 崇拜 (suuhai), 礼拝 (reihai) va 祈り (inori) terminlarining ma‘nolari hamda ularning o‘zbek tilidagi ekvivalent tarjimalari tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *ibodat, sajda, sig‘inish, duo, iltijo, ta‘zim, but, xudo*

Аннотация: *В процессе языка и перевода правильная передача религиозных терминов имеет особое значение. Особенно при переводе исламских понятий на другие языки необходимо учитывать семантические тонкости и культурные различия. При переводе японских терминов 崇拜, 礼拝 и 祈り на узбекский язык важно глубоко понимать их семантические и религиозные особенности. Правильно подобранные эквивалентные переводы способствуют точной передаче содержания религиозных текстов и предотвращают их неверное толкование. В данной статье анализируются значения японских терминов 崇拜 (су:хай), 礼拝 (рэйхай) и 祈り (инори), а также их эквивалентные переводы на узбекский язык.*

Ключевые слова: *поклонение, обожание, , мольба, почтение, идол, бог*

Abstract: *In the process of language and translation, the accurate rendering of religious terms is of particular importance. Especially when translating Islamic concepts into other languages, it is necessary to take into account semantic nuances and cultural differences. When translating the Japanese terms 崇拜, 礼拝, and 祈り into Uzbek, it is essential to have a deep understanding of their semantic and religious characteristics. Properly chosen equivalent translations help convey the meaning of religious texts accurately and prevent misinterpretation. This article analyzes the meanings of the Japanese terms 崇拜 (suuhai), 礼拝 (reihai), and 祈り (inori), as well as their equivalent translations into Uzbek.*

Keywords: *worship, adoration, supplication, supplication, obeisance, idol, god*

崇拜 (suuhai), 礼拝 (reihai) va 祈り (inori) terminlari ibodatga ishora qiluvchi terminlar bo'lib, kontekstga ko'ra ular farqlanib qo'llanadi. Quyida Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlarining "Iymon" nomli kitoblarida keltirilgan ibodat mavzusida gi matnni yapon tiliga tarjima qilish asnosida yuqoridagi so'zlarni ekvivalent tarjimalarini ko'rib chiqamiz.

"Inson aqli musaffo bo'lib, chuqur tafakkurga berilganida o'z-o'zidan unda "Nima uchun dunyoga keldim?", "Mening dunyoga kelishimdan maqsad nima?" degan savollar paydo bo'ladi.

Qur'on bu masalalarga ochiq-oydin javob beradi. Insonning yaratilishidan maqsad Allohga ibodat qilishdir. Zariyat surasida shunday deyilgan:

"Jin va insonni faqatgina Menga ibodat qilishlari uchun yaratdim" (56-oyat).

Allohning ibodati bo'ysunishning nihoyatda yuqori cho'qqisi bo'lib, Unga itoat qilish orqali inson o'zini xokisor tutadi. Mana shunday holatni tuyish uchun esa Allohdan boshqa hech kimga va hech narsaga sig'inmasligimiz lozim. Chunki yer yuzidagi barcha narsalar Allohning yaratgan narsalaridir. Qur'oni Karimda bu haqida shunday deyilgan:

"Hukm faqat Allohning O'ziga xosdir, U faqat O'zigagina ibodat qilishingizni amr etdi" (Yusuf surasi, 40-oyat).¹³²

「人間の理性が澄みわたり、深く思索にふけると、自然と『なぜ自分はこの世に生まれてきたのか』『自分がこの世に生まれた目的は何か』という問いが生じる。

クルアーンはこれらの問題に対して明確な答えを示している。人間が創造された目的は、アッラーに礼拝することである。ザーリヤート章には次のように述べられている。

『われがジン*と人間を創造したのは、彼らがわれ(のみ)を崇拜するために外ならない。』(第56節)。

アッラーへの礼拝は、服従の最も高い極致であり、アッラーに従うことによって、人は自らを謙虚に保つようになる。このような状態を実感するためには、アッラー以外のいかなるものにも、また誰にも崇拜してはならない。なぜなら、この地上に存在するすべてのものは、アッラーによって創られたものであるからである。クルアーンにはこのようにも述べられている。

¹³² Shayx Muhammadsodiq Muhammad Yusuf "Iymon". –T.: "Hilol Nashr", 2025, 282-bet

『ご裁決はアッラーにのみ属し、かれはあなた方が、かれ以外は崇拝しないように命じられたのですから。』（ユースフ章、第40節）。』

崇拝 (suuhai) so‘zi “sig‘inish”, “ulug‘lab ibodat qilish” kabi ma‘noda qalbdagi harakatni ifodalaydi. Ya‘ni umumiy ma‘nodagi “ibodat” so‘zi o‘rnida qo‘llash mumkin. Shuningdek, bu termin ko‘proq butparastlik, ya‘ni moddiy jismlarga yoki ko‘pxudolikka asoslangan diniy qarashlar bilan bog‘liq holda ularga e‘tiqod qilish, sig‘inishda ham ishlatiladi. O‘zbek tilida ushbu so‘zning asosiy ekvivalenti: ibodat qilish, sig‘inish, e‘tiqod qilish. Yapon tilidagi Qur‘on tarjimasidagi “Allohga ibodat” jumlasida 崇拝 (suuhai) termini bilan berilgan. Sababi, kontekstda ibodat qilinishi kerak bo‘lgan Alloh aniq, ochiq-oydin ko‘rsatilgan. Bunda hech qanday bud, sanam tushunilmayabdi.

礼拝 (reihai) termini “jismoniy ta‘zim”, “sajda qilish” ma‘nosini bildiradi. Bu so‘z monoteistik dinlarda, xususan islomda ibodatni ifodalash uchun eng mos keladi. O‘zbek tilidagi ekvivalentlari ibodat, kontekstga qarab namozni ham ifodalashi mumkin. 礼拝 so‘zi diniy jihatdan neytral va keng qo‘llaniladigan termin bo‘lib, haqiqiy umumiy har qanday ibodat tushunchasini ifodalaydi.

祈り (inori) so‘zi “duo”, “iltijo”, “so‘rab murojaat qilish” ma‘nolarini bildiradi. Bu ibodatning bir qismi bo‘lib, insonning Yaratganga murojaatini ifodalaydi. O‘zbek tilidagi ekvivalentlari duo, iltijo. Bu termin ibodatning umumiy shaklini emas, balki uning ichki elementlaridan birini ifodalaydi.

Xulosa qilib aytganda, Yuqoridagi terminlar bir-biriga yaqin ko‘rinsa-da, ularning semantik doirasi sezilarli darajada farqlanadi. 崇拝 sig‘inish va butparastlikni bildirsa, 礼拝 haqiqiy ibodatni anglatadi. 祈り esa ibodatning muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi. Tarjima jarayonida ushbu farqlarni e‘tiborga olmaslik ma‘no buzilishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, har bir termin o‘z kontekstiga mos ravishda tarjima qilinishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shayx Muhammadsodiq Muhammad Yusuf “Iymon”. –T.:”Hilol Nashr”, 2025.
2. Al-Quran-Japanese-Translation-King-Fahad-Complex-00547268300
3. <https://reibuncnt.jp>